

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RAG‘BATLANTIRISH ORQALI HUDUDLARNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Ibragimova Ma’mura Muxiddinovna PhD., dotsent
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17062456>

Annotatsiya. Maqolada yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida hududlarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tutgan o‘rni tahlil qilingan. Xalqaro tajribalar asosida O‘zbekiston sharoitiga mos rag‘batlantirish mexanizmlari ishlab chiqilgan va kichik tadbirkorlik faoliyatini ekologik innovatsiyalar orqali rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, ekologik innovatsiyalar, hududiy rivojlanish.

Kirish. Bugungi kunda global iqtisodiyotda yuz berayotgan iqlim o‘zgarishlari, ekologik degradatsiya va tabiiy resurslarning cheklanganligi dunyo mamlakatlari oldiga iqtisodiy rivojlanish paradigmasini qayta ko‘rib chiqish vazifasini qo‘ymoqda. An’anaviy iqtisodiy rivojlanish modellari ekologik muammolarni chuqurlashtirib, tabiat resurslarini intensiv tarzda ekspluatatsiya qilish orqali kelajak avlodlar manfaatlariga xavf tug‘dirishi tobora aniq namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, XXI asrda iqtisodiy rivojlanishning yangi strategiyasi sifatida yashil iqtisodiyot konsepsiyasiga o‘tish zarurati xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan ustuvor yo‘nalishga aylandi. Mazkur konsepsiya iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirishni taqozo etadi.

Yashil iqtisodiyot tushunchasi dastlab XX asrning oxirlarida paydo bo‘lib, XXI asr boshlarida global ekologik muammolar va barqaror rivojlanish kontsepsiyasi bilan chambarchas bog‘lanib ketdi. Bu tushuncha Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2012-yilda Rio-de-Janeyro shahrida o‘tkazilgan "Rio+20" sammitida global kun tartibiga keng ko‘lamda kiritildi. Sammit yakunlari bo‘yicha

qabul qilingan “Kelajakni xohlaymiz” deklaratsiyasida yashil iqtisodiyot iqtisodiy o‘shishning asosiy instrumentlaridan biri sifatida qayd etilib, ekologik jihatdan barqaror bo‘lgan iqtisodiyotni shakllantirish, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish kabi masalalarni qamrab oldi. Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoy kabi rivojlangan mamlakatlarda yashil iqtisodiyot prinsiplari milliy iqtisodiy strategiyalarning tarkibiy qismiga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasi uchun yashil iqtisodiyotga o‘tish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, mamlakat iqtisodiyotining an’anaviy tarmoqlari, ayniqsa qishloq xo‘jaligi, sanoat ishlab chiqarishi va energetika sohalarida resurslardan foydalanish samarasizligi hamda atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatish holatlari kuzatilmoqda. Shu sababli, O‘zbekistonning 2019-yilda qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha Strategiya”si doirasida 2030-yilgacha iqtisodiyotning energiya samaradorligini ikki barobarga oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish va iqtisodiyotning barcha sohalarida yashil texnologiyalarni keng tatbiq etish vazifalari belgilangan. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining rolini oshirish muhim vazifalardan biri sifatida qayd etilgan.

Mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bandlikni ta’minlash, innovatsiyalarni joriy qilish, mahalliy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlovchi asosiy kuch sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishda kichik biznes subyektlari qulay moslashuvchanlik va innovatsion faollik ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotga o‘tishda kichik biznes faoliyatini rag‘batlantirish mexanizmlarining samarali ishlashi hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. Yashil iqtisodiyot tushunchasi iqtisodiy rivojlanishning yangi paradigmasi sifatida atrof-muhit muammolari bilan iqtisodiy o‘shishni uyg‘unlashtirish zarurati natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, uning nazariy jihatdan

shakllanishida ekologik iqtisodiyot va barqaror rivojlanish nazariyalarining oʻrni katta. Bu konsepsiya iqtisodiy oʻsishning ekologik barqarorligi va resurslardan oqilona foydalanishni taʼminlash uchun moʻljallangan¹. Ekologik iqtisodiyot nazariyasida tabiat resurslaridan foydalanishni minimal darajaga tushirib, iqtisodiyot va ekologiya oʻrtasidagi uygʻunlikni taʼminlash ustuvor vazifa sifatida koʻrsatiladi².

Xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlariga koʻra, yashil iqtisodiyotga oʻtish orqali iqtisodiyotni ekologik xavflardan himoya qilish, energiya va resurslardan samarali foydalanish hamda yangi ish oʻrinlarini yaratish imkoniyatlari kengayadi. Xususan, BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) yashil iqtisodiyotni “tabiat kapitalining kamayishiga yoʻl qoʻymasdan, ekologik xavflarni sezilarli darajada kamaytirgan holda inson farovonligini va ijtimoiy tenglikni taʼminlovchi iqtisodiyot” deb taʼriflaydi³.

Yashil iqtisodiyotga oʻtishda kichik biznesning oʻrni va ahamiyati koʻplab xorijiy tadqiqotlarda keng muhokama qilingan. Chunki kichik va oʻrta biznes subyektlari (KOʻB) iqtisodiy rivojlanishni taʼminlash, innovatsiyalarni joriy qilish hamda ish oʻrinlarini yaratishda muhim rol oʻynaydi⁴. Aynan kichik biznes subyektlari yashil texnologiyalar va ekologik toza ishlab chiqarish usullarini tezroq qabul qilish va joriy etish imkoniyatiga ega boʻlib, iqtisodiyotning yashil transformatsiyasida asosiy lokomotiv vazifasini bajarishi mumkin.

Harms oʻz tadqiqotida kichik biznes subyektlarining yashil iqtisodiyotga moslashuvchanligi va innovatsion imkoniyatlari yuqori ekanligini taʼkidlaydi hamda ekologik innovatsiyalar orqali mahalliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish mumkinligini qayd etadi⁵. Tadqiqotchining fikricha, kichik biznes subyektlari katta korxonalarga qaraganda ekologik jihatdan barqaror

¹ Pearse D.W. Green Economics // Environmental Values. – 1992. – T.1. -№.1. -C.3-13.

² Costanza R. Ecological Economics: The Science and management of Sustainability. – New York: Columbia University Press, 1991.

³ UNEP. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. – Nairobi:United Nations Environment Programme, 2011.

⁴ OECD. SMEs: Key Drivers of Green and Inclusive Growth. – Paris: OECD Publishing, 2018.

⁵ Harms R. Green Entrepreneurship: Definition and Theoretical Foundations // International Journal of Entrepreneurial Behavior & Research. – 2015. -T.21. -№.4. -C.405-430.

texnologiyalarni tezroq joriy etishi mumkin, chunki ularning boshqaruv tizimi sodda va moslashuvchan bo'ladi.

Yuqoridagi tadqiqot natijalari va tahlillar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- hududlarda yashil iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari va subsidiyalar ko'rinishida davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish;

- yashil texnologiyalarni joriy qilish uchun moliyaviy institutlar orqali imtiyozli kreditlash tizimini yo'lga qo'yish;

- hududlarda yashil biznes klasterlari va texnoparklar faoliyatini rivojlantirish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun ekologik innovatsiyalar bo'yicha axborot-konsalting xizmatlarini tashkil etish hamda yashil mahsulot va xizmatlarni davlat xaridlari tizimiga keng jalb qilish.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali hududlarda yashil iqtisodiyotga asoslangan barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin.

Tahlil va natijalar. Yashil iqtisodiyotga o'tish bugungi kunda global iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan bo'lib, ushbu jarayonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining faol ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi. Kichik biznes subyektlari o'zlarining moslashuvchanligi, innovatsion yondashuvlari va mahalliy resurslardan foydalanish imkoniyatlari bilan barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi tashabbuslarni ilgari surmoqda. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, yashil texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda kichik tadbirkorlik muhim iqtisodiy va ijtimoiy rol o'ynaydi.

Quyida keltirilgan 1-jadvalda, Germaniya kichik biznes faoliyatida yashil investitsiyalar ulushi eng yuqori bo'lib, 22% ni tashkil etadi, bu mamlakatning qayta tiklanadigan energiya va yashil texnologiyalar sohasidagi ilg'or pozitsiyasini aks ettiradi. AQShda yashil investitsiyalarning umumiy ulushi 18% bo'lib, u diversifikatsiyalangan investitsiya strategiyasiga ega bo'lib, asosan ekologik

texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Buyuk Britaniya va Fransiya bu sohada Germaniya bilan raqobat qilsa-da, investitsiyalarning ulushi nisbatan past. Kanadada yashil investitsiyalar ko‘paymoqda, ammo hali ham boshqa rivojlangan mamlakatlarga qaraganda sekin rivojlanmoqda.

1-jadval.

Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes subyektlarining yashil iqtisodiyotni shakllantirishdagi investitsiyaviy faolligi ko‘rsatkichlari (2020–2024 yillar)

Mamlakat	Kichik biznes tomonidan yashil investitsiyalar ulushi (%)	Qayta tiklanadigan energiyaga investitsiyalar (%)	Yashil texnologiyalarga investitsiyalar (%)
AQSh	18%	9%	7%
Germaniya	22%	12%	10%
Buyuk Britaniya	19%	8%	11%
Fransiya	17%	6%	11%
Kanada	16%	7%	9%

Manba: OECD (2024). “Which SMEs are greening?” – OECD Publishing, Paris.

2-jadval.

Kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilgan yashil ish o‘rinlarining rivojlangan mamlakatlar mehnat bozoridagi ulushi (2020–2024 yillar)

Mamlakat	Yashil sohalarda jami bandlik ulushi (%)	Qayta tiklanadigan energiyada bandlik (%)	Yashil texnologiyalar sohasida bandlik (%)
AQSh	23%	10%	8%
Germaniya	25%	12%	10%
Buyuk Britaniya	20%	8%	9%
Fransiya	19%	7%	8%
Kanada	18%	6%	7%

Manba: International Labour Organization (ILO), World Employment and Social Outlook: Trends 2024.

Germaniya va AQShda yashil sohalarda kichik bizneslar tomonidan yaratilgan ish o‘rinlari ulushi yuqori bo‘lib, bu mamlakatlarning yashil iqtisodiyotga o‘tishdagi yetakchiligini ko‘rsatadi. Germaniya 25% bilan yetakchilik qiladi, bu esa mamlakatning qayta tiklanadigan energiya va yashil texnologiyalar sohasidagi yuksak salohiyatini tasdiqlaydi. AQShda 23% ish o‘rni yaratilgan, bu kichik bizneslarning barqaror texnologiyalarga qaratilgan faoliyatini aks ettiradi. Buyuk

Britaniya va Fransiya bu ko‘rsatkichlar nisbatan pastroq, lekin ularning o‘shish potentsiali mavjud. Kanada va Fransiya uchun ushbu ko‘rsatkichlar past, bu esa ushbu mamlakatlarda kichik bizneslarning yashil sektorlar bilan integratsiyasi yanada kuchaytirilishi kerakligini ko‘rsatadi.

3-jadval.

Rivojlangan mamlakatlarda yashil iqtisodiyotga o‘tishda kichik bizneslarning YaIMga qo‘shgan hissasi tarkibiy ko‘rsatkichlari (2020–2024 yillar)

Mamlakat	YaIMda kichik bizneslar hissasi (%)	Qayta tiklanadigan energiya hissasi (%)	Yashil texnologiyalar hissasi (%)
AQSh	12%	5%	4%
Germaniya	14%	6%	5%
Buyuk Britaniya	10%	4%	5%
Fransiya	9%	3%	4%
Kanada	8%	3%	4%

Manba: OECD Green Growth Indicators (2024), Green Growth in Action: SME Contributions to Green GDP.

Germaniya kichik bizneslarining yashil iqtisodiyotga qo‘shgan hissasi eng yuqori bo‘lib, YaIMga 14% hissa qo‘shadi. Bu yuqori ko‘rsatkich mamlakatning ekologik texnologiyalar va qayta tiklanadigan energiya sohasida olib borayotgan siyosatlarining muvaffaqiyatini ko‘rsatadi. AQShda kichik bizneslar 12% hissa qo‘shmoqda, bu iqtisodiyotning yashil sohalarga qo‘shgan hissasi ko‘p jihatdan diversifikatsiya qilinganligini tasdiqlaydi. Buyuk Britaniya va Fransiya kichik bizneslarining yashil iqtisodiyotga qo‘shgan hissasi nisbatan kamroq, lekin ular yashil texnologiyalar va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq maqsadlarni amalga oshirishni davom ettiradi. Kanadada bu ko‘rsatkichlar past, bu esa mamlakatda yashil bizneslarni rivojlantirish uchun qo‘shimcha rag‘batlantirishlar zarurligini ko‘rsatadi.

Takliflar. Yashil iqtisodiyotga o‘tish zamonaviy iqtisodiy rivojlanish paradigmasining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda va bu jarayonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ishtiroki strategik ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, kichik korxonalar ekologik innovatsiyalarni joriy etish, resurslardan tejamkor foydalanish va yashil ish o‘rinlarini yaratishda yetakchi kuchga aylanmoqda. Tahlillar shuni tasdiqladiki,

Germaniya, AQSh, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda kichik bizneslar tomonidan amalga oshirilgan yashil investitsiyalar, ularning mehnat bozoridagi faolligi hamda YaIMdagi hissasi barqaror iqtisodiy o'sish va ekologik muvozanatni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu tajribalar asosida O'zbekiston sharoitida quyidagi amaliy va institutsional takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan, kichik biznes subyektlarini yashil investitsiyalarga jalb etish maqsadida davlat tomonidan ekologik investitsiya loyihalari uchun maqsadli grantlar, imtiyozli kreditlar va soliq yengilliklari tizimini yaratish zarur. Bu orqali ularning qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini joriy etishga va "toza ishlab chiqarish" konsepsiyasiga o'tishiga rag'bat beriladi.

Ikkinchidan, yashil iqtisodiyot sohasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari uchun biznes-inkubatorlar va ekologik innovatsiyalar markazlarini tashkil etish, ularning texnologik salohiyatini oshirish hamda ilm-fan bilan integratsiyasini kuchaytirish dolzarb vazifadir. Shu bilan birga, ekologik menejment bo'yicha malaka oshirish dasturlarini tizimli yo'lga qo'yish kichik tadbirkorlarning barqaror qarorlar qabul qilish salohiyatini oshiradi.

Uchinchidan, hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda ekologik toza loyihalarning kichik bizneslar orqali amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlash, xususan, suv tejovchi texnologiyalar, bioenergiyaga asoslangan ishlab chiqarish va yashil transport infratuzilmasini joriy etishga yo'naltirilgan tarmoq dasturlarini ishlab chiqish lozim. Bu nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki mintaqaviy bandlik darajasini oshiradi.

To'rtinchidan, O'zbekistonda kichik bizneslar tomonidan amalga oshirilgan ekologik loyihalarning monitoring va baholash mexanizmlarini takomillashtirish lozim. Bu borada "yashil reyting" tizimini joriy etish orqali korxonalar ekologik mezonlarga ko'ra baholanadi va ularning faoliyatiga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasi aniqlanadi.

Xulosa. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlar tajribasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari yashil iqtisodiyotga

o'tishda hal qiluvchi o'rin tutmoqda. Ular ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, resurslardan tejamli foydalanish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini kengaytirish va yashil innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish orqali barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Germaniya, AQSh va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda kichik bizneslar tomonidan amalga oshirilgan yashil investitsiyalar ulushi 18–22% ni tashkil etib, bu soha nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ekologik xavfsizlikni ta'minlashga ham xizmat qilmoqda. Shuningdek, ushbu korxonalar tomonidan yaratilgan yashil ish o'rinlari ulushi mehnat bozorida barqarorlikni saqlashda va ijtimoiy himoyani kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot natijalari O'zbekiston uchun ham dolzarb xulosa va tavsiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Jumladan, mamlakatda kichik bizneslarning yashil iqtisodiyotda ishtirokini kengaytirish orqali mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish va xalqaro ekologik standartlarga mos ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish mumkin. Ayniqsa, energetika, qishloq xo'jaligi, transport va qurilish sohalarida ekologik texnologiyalarni joriy etishda kichik bizneslarning roli strategik ahamiyat kasb etadi.

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishda kichik bizneslarni rag'batlantirish, ularni moliyaviy, institutsional va texnologik jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, yashil iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholash tizimini joriy etish mamlakatning barqaror rivojlanish yo'nalishidagi intilishlarini tezlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishda xalqaro tajriba va mahalliy sharoitlarning uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilishi, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida innovatsion, ekologik va inklyuziv yondashuvlarning kuchayishiga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Pearce D.W. Green Economics // Environmental Values. – 1992. – T. 1. – №. 1. – C. 3-13.

2. Costanza R. Ecological Economics: The Science and Management of Sustainability. – New York: Columbia University Press, 1991.
3. UNEP. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. – Nairobi: United Nations Environment Programme, 2011.
4. OECD. SMEs: Key Drivers of Green and Inclusive Growth. – Paris: OECD Publishing, 2018.
5. Harms R. Green Entrepreneurship: Definition and Theoretical Foundations // International Journal of Entrepreneurial Behavior & Research. – 2015. – T. 21. – №. 4. – С. 405-430.